



TUG‘RUQ JAROHATLARI – TURLARI VA OLDINI OLISH USULLARI

Tilyavova Sitora Amirzoda

Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti o‘qituvchisi (Phd)

Kamolova Zarnigor

Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti Akusherlik
va ginekologiya yo‘nalishi 1-bosqich ordinatori

Davronova Durdona

Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti Akusherlik
va ginekologiya yo‘nalishi 1-bosqich ordinatori

Abstract: This article is devoted to providing detailed information about the changes in the mental and emotional states of pregnant women before and after childbirth and birth injuries. In it, the conditions before and after childbirth are interpreted as urgent problems

Key words: childbirth, trauma, hematoma, fracture, exit, microadenoma, swelling, anemia, pregnancy pathologies.

Annotatsiya: Ushbu maqola homilador ayollarning tug‘ruqdan oldin va tug‘ruqdan keyin yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan ruhiy emotsional holatlaridagi o‘zgarishlar va tug‘ruq jarohatlari haqida batafsil ma’lumot berishga bag‘ishlangan. Unda tug‘ruqdan oldin va keyin bo‘ladigan holatlar dolzarb muammo sifatida talqin etiladi.

Kalit so‘zlar: tug‘ruq, travma, gematoma, sinish, chiqish, mikroadenoma, shilinish, anemiya, homiladorlik patologiyalari.



Bugungi kunda tibbiyot jadal sur'atlar bilan rivojlanganligiga qaramasdan ayollarda tug'ruq jarayoni va undan keyingi asoratlar haqida yetarlicha bilimlar mavjud emas. Buning asosiy sababi aholi orasida yetarli tibbiy bilimlarning yetishmasligidir. Shuning oqibatida tug'ruq oldi va tug'ruqdan so'ng ayollarda yetarli darajada psixologik va taravmatik jaroxatlar qolayotganligi va keying tug'ruq jarayonidan mutlaqo qo'rqish holatlari yuzaga kelmoqda. Ushbu jarayonlar quyidagi holatlarga olib kelmoqda:

Yetilgan homila deb, 38 haftagacha davom etgan homilaga aytiladi – ayol organizmi tug'ish jarayoniga tayyorlana boshlaydi. Ayol qonida homilani ushlab turuvchi gormonlar konsentratsiyasi pasayib, tug'ishni stimullovchi gormonlar miqdori ortadi.

Tug'ish jarayoni maxsus gormonlar konsentratsiyasi maksimal darajaga yetganda boshlanadi. Ko'p kuzatiladigan tug'ruq jarohatlari;

Yumshoq to'qimalarning yuza jarohatlari

Oddiy qilib aytganda bu — shilinish, tananing unchalik katta bo'lmagan sohasida qon quyilishi... Ular go'dakning tug'ruq yo'llari bo'ylab harakatlanishi oqibatida yoki qandaydir tibbiy aralashuv natijasida yuzaga keladi. Bunday zararlanishlar mahalliy davolashni talab etadi va 7-14 kun davomida o'tib ketadi.

Ko'p kuzatiladigan tug'ruq jarohatlari;

Yumshoq to'qimalarning yuza jarohatlari;

Shilinish — tananing unchalik katta bo'lmagan sohasida qon quyilishi hisoblanadi. Ular go'dakning tug'ruq yo'llari bo'ylab harakatlanishi oqibatida yoki qandaydir tibbiy aralashuv natijasida yuzaga keladi. Bunday zararlanishlar mahalliy davolashni talab etadi va 7-14 kun davomida o'tib ketadi.

Tug'ruq jarohatlari: Gematoma va mikroadenomalar

Ba'zida nafaqat teri, shuningdek, birmuncha chuqur to'qimalar, masalan, teri osti yog'to'qimalari ham ta'sirlanadi. Bunday vaziyatda siypalab ko'rilganda chaqaloqda mayda tugunchalarni sezish mumkin. Gematoma paydo bo'lishi mumkin bo'lgan mushaklar ham



bundan aziyat chekdi. Bu bolaning boshi muayyan tomonga qayrilishi oqibatidagi (ayniqsa hayotining dastlabki 2 haftasida) patologiyadir.

Tug‘ruq shishi

Bunda homila tug‘ruq yo‘llari bo‘ylab oldinga harakatlanganda boshining, yumshoq to‘qimalarning shishganligi nazarda tutiladi. Tug‘ruq shishi yangi tug‘ilgan go‘dakda sarg‘aymaning davomli kechishiga sabab bo‘lishi mumkin. Odatda bir necha kun ichida o‘zi so‘rilib ketadi. Kamdan-kam hollarda suyak sinishi, darz ketishi hollari yuz berishi mumkin. Bunday vaziyatlarda shish o‘lchami katta bo‘ladi va uzoqroq vaqt saqlanib turadi, murakkab muolajalarni talab etadi. Bunday muammolarga nasliy qon kasalliklari sabab bo‘lishi mumkin. Shuningdek, homila o‘lchami yirik, ayol chanog‘i tor bo‘lganda, muddatdan oldin suv ketib, homila suvsiz qolganda ham tug‘ruq shishi kuzatiladi.

Chiqish, sinishlar

Shifokorlarning homila qanday joylashganiga katta e‘tibor qaratishi bejizga emas. Agar homila tug‘ilish oldidan oldinga oyoq tomoni bilan harakatlansa, jarohatlanish xavfi yuqori bo‘ladi. Homilaning aynan shunday joylashishi tufayli (albatta boshqa omillar ham inobatga olingan holda) tug‘ruq kesarcha kesish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

Kichkintoyni tug‘ruq jarohatlaridan asrash qoidalari;

Imkon qadar tezroq ayollar maslahatxonasidan ro‘yxatdan o‘ting;

Sog‘lom turmush tarzi kechiring, zararli odatlarni tark eting;

Infeksiyalarni erta bosqichlarda aniqlashga e‘tiborsizlik qilmang;

Shifokor tavsiyalariga qat’iy amal qiling;

Oilada ijobiy ruhiy muhit hukm surishiga erishing;

Tug‘ruqni uyda emas, albatta shifokorlar nazorati ostida amalga oshiring;

Tug‘ruq jarohatlari ro‘y bermasligi sizga bog‘liq.

Ko‘pincha homilador ayollar atrofidagi insonlardan tug‘ruq haqida tug‘ruq jarayoniga oid bo‘lmagan turli gap so‘zlarni eshitib, bo‘lajak onalar yaqinlashib qolgan tug‘ruq



jarayonidan qoʻrquvga tushishadi. Shundan soʻng tugʻruq oldi jarayonlarning murakkablashuviga olib keladi.

Eng asosiysi, shifokor fikriga quloq tuting. Shifokorlar hamisha homila boshi va ona chanogʻi oʻlchamlari bir-biriga mos kelish-kelmasligini, tugʻilajak bola qay holatda yotganini inobatga olishadi. Bu kabi omillar boʻlajak ona homiladorlik davrida nazoratda boʻlganda baholanadi. Shuning uchun u ayollar maslahatxonasida qancha erta roʻyxatga olinsa, shuncha yaxshi. Tugʻruq vaqtida ayol va tugʻilajak bolaning umumiy ahvoli qay darajadaligi juda muhim. Homiladorlik davri ortiqcha zoʻriqishlarsiz, homilador ayol hotirjam bor kuchini toʻplab shifokor koʻrsatmasiga muvofiq harakatlanishi talab etiladi. Tugʻruqqacha boʻlgan jarayonda toza havoda koʻproq sayr qilish muhim sanaladi.

Homilador ayolning tugʻruq jarayonini boshlanishini aniqlab olish oson boʻlmaydi, lekin tez kunlarda farzandning dunyoga kelishini bildiruvchi belgilar ham bor.

Homiladorlikning soʻngi haftalarida ayollar sabrsizlik bilan farzandi dunyoga kelishini kutishadi va “Qachon bolakay tugʻiladi?” degan savolni koʻp berishadi. Ushbu maqola orqali tugʻruq jarayoni haqida batafsil toʻxtalib oʻtamiz.

Tugʻruq oldidan:

Farzandning dunyoga kelish kunini oldindan aniq aytib berish qiyin, baʼzida homiladorlikning 38–40 hatto 42-haftalarida ham tugʻruq jarayoni boshlanishi mumkin. Agar ayol oʻz organizmidagi oʻzgarishlarga diqqat bilan eʼtibor qaratsa, farzand dunyoga kelish belgilarini sezib oladi.

Xulosa oʻrnida shuni takidlashimiz mumkinki eng mohimi, shifokor fikriga quloq tuting. Shifokorlar hamisha homila boshi va ona chanogʻi oʻlchamlari bir-biriga mos kelish-kelmasligini, tugʻilajak bola qay holatda yotganini inobatga olishadi. Bu kabi omillar boʻlajak ona homiladorlik davrida nazoratda boʻlganda baholanadi. Shuning uchun u ayollar maslahatxonasida qancha erta roʻyxatga olinsa, shuncha yaxshi. Tugʻruq vaqtida ayol va tugʻilajak bolaning umumiy ahvoli qay darajadaligi juda muhim. Xullas, hammasi oʻzingizga bogʻliq. Homiladorlik davri asabbuzarliklarsiz, koʻngildagidek oʻtishi uchun



qo'lingizdan kelganicha harakat qiling, toza havoda ko'proq sayr qiling (bu go'dakda kislorod yetishmovchiligining oldini olishning eng yaxshi chorasini). Shunda orziqib kutgan farzandingiz sog'-omon dunyo yuzini ko'radi!

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ya.N.Allayarov akusherlik va ginekologiya kitobi 55-65 betlardan
2. M. F Ziyayeva, G. X. Mavlyanova ginekologiya kitobi 2018 14-19 betlar
3. <https://avitsenna.uz/hayz-funksiyasining-buzilishi/>
4. <https://www.savol-javob.com/hayz-haqida-toliq-malumat/>
5. <https://avitsenna.uz/hayz-funksiyasining-buzilishi/>
6. Med24.uz